



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: HAMZAYEV JAMSHID FAYZIDIN O'G'LI

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti**

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: KIRTI SETH

INHA University in Tashkent

professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260015
Xulosa raqami	1003
Xulosa sanasi	13.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy. Litsenziya: № 1965967, 22.04.2008. Guvohnoma: MAS № 0000166, 22.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Axborot tizimlari va texnologiyalari
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60610100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 1965967, 22.04.2008
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60610100 – Axborot tizimlari va texnologiyalari
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60610100 – Information Systems and Technologies
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60610100 – Информационные системы и технологии
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Axborot texnologiyalari mutaxassisi, informatika fani o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha tashkiliy-boshqaruv tizimi umumiy holatda muvofiq deb baholanadi. Mazkur yo'nalishda mezonlarning aksariyati to'liq bajarilgan bo'lsa-da, dasturni rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli reja mezonini (1.2) qisman muvofiq deb baholanadi. Ta'lim dasturini amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilma, boshqaruv mexanizmlari va mas'ul ijrochilar aniq belgilanganligi, ichki sifatni ta'minlash tizimi monitoring va baholashga asoslangan holda manfaatdor tomonlar ishtirokida samarali faoliyat yuritishi qayd etiladi. Istiqbolli rivojlanish rejasi mavjud bo'lib, unda dastur mazmunini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish yo'nalishlari qamrab olinganligi e'tirof etiladi. Shu bilan birga, 1.2-mezonning qisman muvofiq deb baholanishiga rivojlantirish rejasida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha asoslarning yetarli darajada dalillanmagani, strategik maqsadlarni moliyaviy resurslar bilan bog'lovchi aniq ko'rsatkichlarning to'liq keltirilmagani sabab sifatida ko'rsatiladi. Mazkur holat bob bo'yicha qisman muvofiq deb baholangan yagona mezon hisoblanadi. Aniqlangan kamchilik tashkiliy-boshqaruv va sifat tizimining umumiy holatiga emas, balki rivojlantirish rejasining moliyaviy-rejaviy jihatdan yanada asoslantirilishi zarurligiga taalluqli deb baholanadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha ta'lim dasturi mazmunining zamonaviyligi va uning standartlarga muvofiqligi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturi manfaatdor tomonlar — professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar va davlat tashkilotlari ishtirokida ishlab chiqilgan bo'lib, uning maqsadlari, o'quv natijalari va kompetensiyalari Davlat ta'lim standarti hamda Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq belgilangan, shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida

raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan. Dastur mazmunida milliy ta'limning ustuvor yo'nalishlari — raqamli transformatsiya, innovatsion rivojlanish va inson kapitalini mustahkamlash, shuningdek ECTS kredit tizimi hamda kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'z aksini topgan. Dastur xalqaro standartlar tamoyillariga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lsa-da, xalqaro akkreditatsiyadan o'tganligini tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar taqdim etilmagan. Mazkur holat ta'lim dasturi mazmunidagi kamchilik sifatida emas, balki uning xalqaro darajada e'tirof etilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning mavjud emasligi bilan izohlanadi. Fanlarning fundamental, umumkasbiy, ixtisoslik va tanlov bloklari o'rtasida muvozanatli taqsimot ta'minlangan, ularning uzviyligi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Dasturning akademik asoslari mustahkam shakllantirilgan bo'lib, uning xalqaro mosligi va xalqaro miqyosda tan olinishini rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlash zarurligi qayd etiladi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimining natijaga yo'naltirilganligi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ishchi o'quv rejalari va fan dasturlari dastur maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda bitiruvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv rejasida fundamental, umumkasbiy, mutaxassislik va tanlov fanlari o'rtasidagi uzviylik ta'minlangan. Fan dasturlarida nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, loyihalar, ilmiy-tadqiqot va pedagogik amaliyot bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, bu o'quv natijalariga erishishni tizimli ravishda qo'llab-quvvatlaydi hamda ta'lim jarayonini bilim uzatishdan kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiradi. Baholash vositalari, o'qitish metodlari va fanlar mazmunining o'zaro integratsiyalashgani, shuningdek zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim vositalari hamda mustaqil ta'lim elementlaridan foydalanilishi o'quv jarayonining natijadorligini oshiruvchi omillar sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yondashuv axborot texnologiyalari yo'nalishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki amaliy va raqamli ko'nikmalar aynan shunday integratsiyalashgan o'quv muhitida shakllantiriladi. O'quv jarayoni va baholash tizimi shaffof, tizimli hamda natijaga yo'naltirilgan holda tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Talabalarni qabul qilish, ularning

akademik harakatini boshqarish, qo'llab-quvvatlash va maslahat berish bo'yicha aniq, shaffof hamda tartibga solingan mexanizmlar mavjud bo'lib, qabul jarayonlari ochiqlik, shaffoflik va teng imkoniyatlar tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Qabul parametrlari universitetning moddiy-texnik bazasi, professor-o'qituvchilar salohiyati, auditoriyalar va laboratoriyalar imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirilganligi natijasida talabalar soni va mavjud resurslar o'rtasida muvozanat ta'minlangan. Mazkur muvozanat ta'lim sifatini saqlab qolishning asosiy sharti bo'lib, resurslardan oshib ketmagan qabul rejasi ta'lim dasturining barqarorligini ta'minlaydi. Talabalar harakatini (ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish, qarzdorlikni bartaraf etish, chetlashtirish va qayta tiklash) tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarning mavjudligi talabaning ta'lim traektoriyasi huquqiy jihatdan himoyalanganligini ko'rsatadi. Talabalar faoliyati yo'nalishi shaffof, adolatli va resurslar bilan muvozanatlashtirilgan ta'lim muhitini ta'minlovchi samarali tizim asosida tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha ta'lim dasturini amalga oshiruvchi inson resurslari salohiyati barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar, boshqaruv, texnik va o'quv-yordamchi xodimlar bilan ta'minlanganlik hamda ularning malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi tasdiqlangan. Dasturga jalb etilgan professor-o'qituvchilar tegishli ilmiy daraja va unvonlarga, zamonaviy kasbiy bilim hamda pedagogik tajribaga ega bo'lib, bu o'quv rejasidagi fanlarni yuqori sifatda o'qitish imkonini yaratadi. Shuningdek, yangi ta'lim dasturlari va zamonaviy fanlarni o'qitish uchun zarur kompetensiyalarga ega kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejalashtirish mexanizmlarining mavjudligi kadrlar salohiyatining nafaqat bugungi, balki kelgusidagi ehtiyojlarga ham javob berishini ko'rsatadi. Axborot texnologiyalari kabi tez yangilanib boruvchi sohada rejaviy yondashuv va uzluksiz malaka oshirish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki fanlar mazmuni doimiy ravishda zamonaviylashtirib borilishi lozim. Inson resurslari bazasi ta'lim dasturini barqaror va sifatli amalga oshirish uchun yetarli darajada mustahkam asos yaratadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha moddiy-texnik ta'minot tizimining yetarlilik darajasi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, laboratoriyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari, o'quv-uslubiy resurslar hamda raqamli ta'lim muhiti mavjud bo'lib,

amaliy, laboratoriya va loyiha mashg'ulotlari uchun zamonaviy kompyuter texnikasi, maxsus dasturiy vositalar va texnik jihozlar bilan ta'minlangan infratuzilma yaratilgan. Mazkur resurslar talabalarining nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi, bu esa axborot texnologiyalari yo'nalishi uchun ta'lim natijalarining sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Fanlar kesimida bosma va elektron o'quv-metodik adabiyotlar hamda zamonaviy axborot manbalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani o'quv jarayonini axborot-resurs jihatidan qo'llab-quvvatlaydi. Moddiy-texnik baza ushbu yo'nalish uchun boshqa ayrim texnik yo'nalishlarda uchraydigan keskin kamchiliklardan xoli bo'lib, ta'lim jarayonini barcha bosqichlarda qo'llab-quvvatlash uchun yetarli darajada shakllantirilgan. Moddiy-texnik ta'minot ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishish uchun ishonchli zamin yaratadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli reja mavjud bo'lsa-da, uning moliyaviy resurslar bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi aniq ko'rsatkichlar yetarlicha keltirilmagan (mazkur mezon qisman muvofiq deb baholangan).
- ✓ Ta'lim dasturi xalqaro standartlar tamoyillariga mos ishlab chiqilgan bo'lsa-da, xalqaro akkreditatsiyadan o'tganligini tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar taqdim etilmagan.
- ✓ Xalqaro ta'lim standartlari, strategik maqsadlar va o'quv natijalari o'rtasidagi moslikni ko'rsatuvchi hujjatlashtirilgan xaritalash (mapping) mexanizmlari hamda kompetensiyalar xaritasi yetarlicha shakllantirilmagan.
- ✓ Manfaatdor tomonlar (ish beruvchilar, bitiruvchilar, talabalar) ishtiroki hamda ichki sifatni ta'minlashning "baholash – tahlil – takomillashtirish" siklini hujjatlashtirish yanada tizimlashtirishga muhtoj.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR


- ✓ Dasturni rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash rejasini aniq moliyaviy ko'rsatkichlar bilan mustahkamlab, uning ijrosini muntazam monitoring qilib borish.
- ✓ Fanlar va o'quv natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatuvchi kompetensiyalar xaritasi hamda xalqaro standartlar bilan moslik matritsalarini hujjatlashtirish.
- ✓ Manfaatdor tomonlar ishtirokini tizimlashtirish va ichki sifatni ta'minlashning uzluksiz "baholash – tahlil – takomillashtirish" siklini rasmiy hujjatlashtirish.
- ✓ Xalqaro akkreditatsiya va xalqaro hamkorlik elementlarini bosqichma-bosqich kengaytirib, dasturning xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini oshirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetida 60610100 – "Axborot tizimlari va texnologiyalari" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Baholash davomida ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv tizimi, ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyati, inson resurslari salohiyati hamda moddiy-texnik ta'minot holati belgilangan mezonlar asosida o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar, malakali kadrlar tarkibi, zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minot va moddiy-texnik baza shakllantirilgan bo'lib, ta'lim dasturi Davlat ta'lim standarti va Milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, ayrim takomillashtirishni talab qiluvchi jihatlar aniqlangan: dasturni rivojlantirish va moliyaviy barqarorlik rejasini aniq ko'rsatkichlar bilan mustahkamlash, xalqaro standartlar bilan moslikni va kompetensiyalar xaritasini hujjatlashtirish, manfaatdor tomonlar ishtirokini tizimlashtirish hamda xalqaro akkreditatsiya va hamkorlik elementlarini kengaytirish zarur. Aniqlangan kamchiliklar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi yoki sifatga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanmaydi; ular asosan dastur sifatini yanada takomillashtirish va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi mazmuni, kadrlar salohiyati, o'quv-uslubiy ta'minoti va moddiy-texnik bazasi mazkur yo'nalish bo'yicha sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun yetarli darajada shakllantirilgan. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

